

## QADIMGI MIF VA AFSONALAR

**O‘rinboyeva E‘zozxon Komolovna**

*FarDU dotsenti v.b. (PhD)*

**Jabborova Diyoraxon Baxodir qizi**

*FarDu, filologiya fakulteti*

*o‘zbek tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada miflarning kelib chiqishi, ularning inson hayotiga ta‘siri, turli mifologik obrazlar va miflarning turlari aniq faktlar asosida ko‘rib chiqiladi va tahlil qilinadi.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются происхождение мифов, их влияние на жизнь человека, различные мифологические образы и виды мифов на основе конкретных фактов и проводится их анализ.*

**Annotation:** *This article examines the origin of myths, their impact on human life, various mythological images, and types of myths based on specific facts, and provides their analysis.*

**Kalit so‘zlar:** *Xalq og‘zaki ijodi, mif, mif turlari, mifik dunyoqarash, ibtidoiy jamoa, olam.*

Mif (yunoncha mythos — afsona, rivoyat, asotir) — qadimgi odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo‘lib, koinotning yaratilishi, inson, o‘simliklar va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo‘lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma‘budlar va ilohlar to‘g‘risidagi e‘tiqodiy qarashlarni o‘z ichiga olgan. Mif qadimgi odamning voqelikka bo‘lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo‘lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimgi tasavvurlar silsilasidir. Mifologik tasavvurlar muayyan voqelik mohiyatini xayoliy uydirma vositasida izoxlasada, mif yaratilgan va ommalashgan joyida o‘z ijodkori va ijrochilari tomonidan haqiqatda bo‘lib o‘tgan voqealar bayoni sifatida qabul qilingan. [2; 455-b.]

Qadimgi odamning olam haqidagi tasavvurlarini o‘zida ifodalagan va avloddan avlodga yetkazishga mo‘ljallangan miflarning ommalashish usullari ham turlicha bo‘lib, asosan, jonli og‘zaki ijro orqali, ya‘ni so‘z vositasida hikoya qilib berilgan. Mifologik tasavvurlar tizimi ibtidoiy udum va marosimlarning mag‘zini tashkil etuvchi ramziy xatti harakatlardan iborat ritual o‘yinlar sifatida ham namoyish qilingan. Qadimgi tasavvurlar asosida yaratilgan osori atiqalar hamda xalq hunarmandchiligi buyumlaridagi ramziy chizgilarda ham mifik syujetlar aks ettirilgan.

Miflar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) ibtido haqidagi miflar (olamning yaratilishi va yerda hayotning paydo bo'lishi to'g'risidagi miflar); 2) samoviy miflar (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi haqidagi miflar); 3) antropogenik miflar (g'ayrioddiy hislatga ega bo'lgan afsonaviy pahlavonlar, masalan, Gerakl, Gilgamesh, Odami Od, Hubbi va boshqa haqidagi miflar); 4) sig'inish miflari (muayyan e'tiqodiy ishonchlar bilan bog'liq, masalan, xreildorlik, suv, o'simlik, olovga sig'inish haqidagi miflar); 5) etnogenetik miflar (urug'qabilalarning kelib chiqishi bilan aloqador miflar; masalan, 92 o'zbek urug'larining paydo bo'lishi haqidagi mif); 6) kalendar miflar (yil, oy, kun hisobi bilan bog'liq miflar, masalan, ayamajuz, ahmandahman, chilla, to'qson hisobi bilan bog'liq miflar); 7) esxatologik miflar (olamning institutihosi haqidagi mif).

Ezgulik kuchlarining zulmatni o'ziga makon qilgan yovuzlikka qarshi kurashini o'zida aks ettirgan qadimgi miflar badiiy tafakkurning shakllanishida muhim rol o'ynagan. Voqelikni estetik kategoriya sifatida idrok etish hamda badiiy so'z vositasida talqin qilish an'anasi kelib chiqqach, qadimgi miflarning asosiy qismi so'z san'atining turli janrlariga singib ketgan. [3; 112-b.]

O'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotidagi ko'plab epik syujet va an'anaviy motivlarning genetik ildizlari bevosita mifik tasavvurlar qatlamiga borib taqaladi. Miflar „Avesto“, „Iliada“, „Ramayana“, „Shohnoma“, „Kalevala“, „Alpomish“, „Go'ro'g'li“ kabi adabiy yodgorliklarning yaratilishida ham salmoqli o'rin tutgan.

Ibtidoiy jamoa davrida dunyo asosan mifologik obrazlar orqali tasavvur qilingan. Bu jarayon dunyoning ibtidosi va intihosi to'g'risidagi tasavvurlarni qamrab olishni maqsad qilib qo'ymaydi. Bunday tasavvurlarning tub asosida kishilarning tevarak-atrofdagi narsa va hodisalar to'g'risidagi bilimlarining o'ta sayozligi va tabiiy muhitdan ajratgan holda tasavvur etmagani yotadi.

Mifologik tasavvurlar dunyoni mifologik obrazlar orqali anglash jarayoni sifatida obyekt bilan subyekt o'rtasida, ijtimoiylik bilan tabiiylik o'rtasidagi munosabatlarning o'ta sodda ifodasi bo'lib, o'z navbatida totemizm, fetimizm, animizm, shomonizm, afsungarlik va boshqa qator shakllarda namoyon bo'ladi. Miflar va marosimlar ibtidoiy madaniyatning ajralmas tarkibiy qismlari hisoblanib, ular o'z navbatida nazariy qarashlar bilan amaliy tajribalarning yaxlitligini o'zida mujassamlashtiradi.

Miflar dunyoni g'ayritabiiy obrazlar orqali tasavvur etadigan Ssan diniy dunyoqarashning ham dastlabki ko'rinishi bo'lib, u kishilarda abstrakt tafakkurning, fantaziyaning shakllanayotganidan darak beradi. Dunyoni mif obrazlari orqali anglash jarayoniga ikkita yondashuvni uchratish mumkin. Masalan, XVIII asr fransuz ma'rifatparvarlari B.Fontenel, Volter, Didro, Monteskye va boshqa mifni kishilarning vahshiylik, yovvoyilik davri bilan bog'liq holda tushuntirishga intilgan. Ular miflarning insoniyat ma'naviyati rivojidadagi muhim rolini inkor etishga uringan.

Miflarga xalqlarning ma'naviy taraqqiyoti uchun asos sifatida baho beruvchi romantizm ruhidagi qarashlar Gerder tomonidan asos solingan ilmiy konsepsiyada o'z ifodasini topgan. Mifning mazmun-mohiyatini to'liq ochib bera olmagan. XX asr badiiy adabiyotida mifologik obrazlardan unumli foydalanish orqali xalqlarning muayyan davrdagi holati, ichki dunyosi, ma'naviy takomil bosqichlarini to'laroq bayon qilishga intilish kuchaydi.

O'zbek xalqi ham o'zining qadimiy mifologik obrazlari orqali dunyoni anglash jarayonidagi o'ziga xoslik milliy tafakkurimizning shakllanishida muhim asos bo'lib xizmat qilayotganini inkor etib bo'lmaydi. Eng qadimgi mifologik obrazlar Parxat, Ardaxiva, Franxrazyon (Afrosiyob) obrazlari bilan bog'liq asotirlar bugungi kunda ham milliy o'zligimizni anglashda muhim ahamiyat kasb etayotgani shubhasizdir. [1; 14-b.]

Qadimgi xalqlar Yerning tuzilishi va u qanday "turgani"ni ilmiy asosda emas, balki mifologik tasavvurlar orqali tushunganlar. Bu qarashlar har bir xalqning dunyoqarashi, hayot tarzi va tabiatni anglash darajasini aks ettiradi. O'zbek va umuman turkiy xalqlar mifologiyasida Yerning qanday turishi haqida bir necha variant mavjud:

Yer ulkan fil ustida turadi, Yer katta kiyikning shoxlarida joylashgan yoki uklan toshbaqa toshlari ustida ko'tarib turadi degan mifik qarashlar ham mavjud. Bundan tashqari, ho'kiz ko'tarib turadi degan mifik fikrlar ham yo'q emas.

Keling, avval Yer sharini fillar ko'tarib turishi haqida fikr yuritsak. Fillar katta va tabiatan anchayin kuchli hayvon bo'lganligi sababli odamlar ilk dunyoqarashlarini ular orqali tasavvur qilgan desak xato bo'lmaydi. Ular (fillar) Yer ostida turib butun Yer sharini navbat bilan, almashib ko'tarib turadi degan ilk mifik dunyoqarash mavjud bo'lgan.

Kiyiklar nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, ular bilan ham shunga o'xshash mifik qarash vujudga kelgan. Ammo, bu ikki qarash o'rtasida, biroz farq mavjud. Kiyiklar ham fillar singari Yerni ko'tarib turganlar, lekin ular ikki shoxlari orqali ko'targanlari bois, bunday mifik qarash yuzaga kelgan: Yerni kiyiklar shoxlari orqali ko'tarib turadi. Agar ular charchasa, Yerni bir shoxlaridan ikkinchi bir shoxlariga o'tkazadilar. Ularning bunday qilishlari natijasida, Yer qimirlab turadi deb faraz qilishgan.

Toshbaqalar ko'tarib turishi haqida esa boshqacha mifik qarash mavjud. Toshbaqalar o'z nomi bilan qattiq jisimli jonzot bo'lganliklari bois, odamlar ilk dunyoqarashlarini ular bilan ham o'zaro bog'liq deb o'ylaganlar. Ya'ni toshbaqalar Yerni qattiq toshlari ustida ko'tarib turadi deb o'ylashgan.

Albatta, bu o'rinda Yerni ho'kizlar ko'tarib turishi haqidagi mifik tasavvur haqida ham fikr yuritib o'tamiz. Qadimda odamlar Yerni ho'kiz ko'tarib turadi deya tasavvur qilishgan. Buning asosiy sabablaridan biri, ho'kizlar kuchli bo'lgan desak va hajm jihatidan boshqa hayvonlarga nisbatan katta bo'lgani desak xato bo'lmaydi.

Yunon mifologiyasida Yer haqidagi qarashlar ancha murakkab va tizimli tavsiflanadi. Yunon mifik qarashlari o'zbek mifologiyasidan farqli ravishda bo'lib, ular Yer tirik mavjudot deya qarashadi.

Yunonlarning Yer haqidagi mifik dunyoqarashlari asosan, Yerning tirikligiga asoslanadi va Yerni "Geya" tirik ma'buda Ona timsolida ko'rishadi. Ya'ni Geya barcha mavjudodlarning onasi sifatida tasvirlanadi.

O'zbek va yunon mifologiyasida Yer haqidagi tasavvurlar bir-biriga o'xshash jihatlarga ega bo'lib, har ikkisi ham dunyo tuzilishini ramziy va mifologik obrazlar orqali tushuntiradi, ammo o'zbek qarashlarida Yer fil yoki kiyik kabi hayvonlar ustida turadigan sodda xalqona tasavvur sifatida ifodalansa, yunon mifologiyasida esa Yer Geya kabi tirik ma'buda sifatida qaralib, koinot tizimi murakkab ilohiy tartib asosida tushuntiriladi, shu bilan birga har ikkala an'ana ham qadimgi insonlarning tabiat va olamni anglashga bo'lgan urinishini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, mif qadimgi odamning borliq olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmuyi, hozirgi adabiyotimiz poydevori shuningdek, odamning voqelikka bo'lgan ongsiz hissiy munosabati ifodasi bo'lib, tabiat va jamiyat hayotining turli qirralari mohiyatini tushuntiruvchi eng qadimgi tasavvurlar silsilasidir.

Turkiy va yunon miqlarida Yer muqaddas va markaziy unsur sifatida talqin qilinadi, biroq ularning tasavvuri turlicha ifodalanadi. Turkiy miqlarda Yer ko'proq tayanch sifatida tasvirlanib, uni fil, kiyik, toshbaqa yoki ho'kiz kabi qudratli mavjudotlar ko'tarib turishi haqidagi qarashlar orqali olamning barqarorligi tushuntiriladi. Yunon mifologiyasida esa Yer jonli va ilohiy mavjudot — ya'ni Geya sifatida qaralib, barcha mavjudotlarning boshlanish manbai sifatida tushuntiriladi. Shunday qilib, turkiy miqlarda Yer barqarorlik timsoda, yunon miqlarida esa ilohiy va tirik asos sifatida talqin qilinadi. Bu esa har ikki xalqning olamni tushunishidagi o'ziga xos dunyoqarashini aks ettiradi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo'rayev M., Shomansurov Sh. O'zbek mifologiyasi va arab folklori. – Toshkent: Fan, 2001. – 160 b.
2. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2000. – 704 b.
3. Токарев С. А. Мифы народов мира. Энциклопедия. – Москва: Советская энциклопедия, 1980. – 672 с.
4. Arxiv.uz elektron kutubxonasi materiallari.